

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIJ VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



2021/2022-o'quv yili

MALAKAVIY AMALIYOT

DASTURI

(3-kurs talabalari uchun)

Amaliyot davomiyligi - 2 hafta

Bilim sohasi:

100000 - Gumanitar soha

Ta'lim sohasi:

120000 - Gumanitar fanlar

Ta'lim yo'nalishi:

5120100 -Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek filologiyasi)

Toshkent – 2021

Kirish

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775 sonli Qarori, "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturidan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi.

Malakaviy amaliyot o'tkaziladigan joylar sifatida gazeta, jurnal tahririyatlari nashriyotlar hamda fakultet tomonidan shartnomada imzolangan tashkilotlar tanlandi. Amaliyot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti va amaliyot ob'yekti o'rtasida tuzilgan o'zaro hamkorlik shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Malakaviy amaliyot muddati : 2021-yil 13-iyundan 25-iyungacha.

Ajratilgan soatlar miqdori: 1 talaba uchun 0,5 soat

Umumiy soatlarni hisoblash mexanizmi: (talaba soni*0,5)*24

Amaliyotni o'tkazishdan asosiy maqsad – talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash, kasb ko'nikmalarini hosil qilish va takomillashtirish, mutaxassislik mahoratini oshirish, ularni mehnat va ijtimoiy faoliyatga jalb qilishdan iborat.

Vazifalari:

- talabalarda kasbiy-amaliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirish;
- amaliy bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish;
- amaliyot uchun tanlangan ob'ektning ilg'or tajribalarini o'rganish;
- kasbiy muammolarni aniqlash va uni hal etish usullarini egallash;
- ichki tartib-qoidalar va xavfsizlik qoidalariga rioya etish ko'nikmasini tarkib toptirish;
- ishga ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirish.

- amaliyot hisobotini yuqori saviyada tuzish;
- amaliyotda berilgan mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajarish;
- amaliyot bilan bog'liq me'yoriy huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirish;

b) yaxshi (to'rt) baho uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- auditoriya sharoitida va mustaqil ravishda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tadbiiq eta bilish;
- amaliyotning mazmuni va mohiyati haqida tushunchaga ega bo'lish, ularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymaslik;
- amaliyot mazmunining amaldagi ahamiyatini tushunish;
- amaliyot bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni amaliyot dasturi doirasida bajara olish;
- amaliyot bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olish;
- amaliyot bo'yicha hisobotni puxta shakllantirilgan bo'lishi;
- amaliyot bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lishi;
- amaliyotga tegishli me'yoriy huquqiy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lishi;

c) qoniqarli (uch) baho uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga

- auditoriya sharoitida va mustaqil ravishda olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qoniqarli tadbiiq eta olish;
- amaliyot haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish;
- amaliyot materiallari torroq yoritilishi, bayonda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilishi;
- amaliyot bo'yicha savollarga o'rtacha darajada javob bera olishi;
- amaliyot bo'yicha hisobot belgilangan muddatda topshirilishi, ayrim imloviy va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilishi, to'liq shakllantirilmagan bo'lishi;

Amaliyotning mazmuni

- Amaliyot o'tish joyiga belgilangan muddatda yetib borish.
- Amaliyot o'tashi rejalashtirilgan tahririyat hamda tarkibidagi bo'limlar bilan tanishish.
- Tahririyatning mehnat intizomi va ichki tartib-qoidalar bilan tanishish va ularga to'la rioya qilish.
- Tahririyatning belgilangan mas'ul xodimlar tomonidan texnika xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalar olish.
- Amaliyot ob'ektining o'zi biriktirilgan bo'limida maxsus mas'ul xodimlar rahbarligi ostida ish jarayoni bilan tanishish.
- Qo'lyozmalar qabul qilish bilan to'liq tanishish.
- Tahrir amaliyoti bilan to'liq tanishish.
- Nashriyot yoki tahririyat tomonidan belgilangan rahbar tavsiyasi bilan muayyan topshiriq olish.
- Materiallarni taqrizlash malakasini hosil qilish.
- Korrektura, tuzatish belgilaridan foydalanib, matn ustida ishlay olish malakasini shakllantirish.
- Matnning elektron nusxasini tayyorlash, uni nashr talablari asosida shakllantirish.
- Tahrir qilingan matnni elektron nusxa bilan solishtirish va tahrirda tuzatilgan o'rinlarni elektron nusxaga o'tkazish.
- Matnni so'nggi tahrirdan chiqarish va bu jarayonda matbaaning texnik talablari doirasida shakllantirish.
- Matn korrekturasi, musahhihlik ishlarini birinchi va ikkinchi korrektura o'qish orqali amalga oshirish.
- Musahhihlar tomonidan kiritilgan tuzatishlarni matnga o'tkazish va matnni texnik muharrir ko'rigiga tayyorlash.
- Nashrga tayyorlangan matnni so'nggi nazardan o'tkazish va matbaa talablari bo'yicha shakllantirish.

Materialni e'lon qilishga tayyorlashning barcha bosqichlari bilan to'liq tanishish.

Bajargan ishlari bo'yicha amaliyot kundaligini muntazam ravishda to'ldirib borish.

Amaliyot o'tkazish joyidan belgilangan rahbarning topshiriq va ko'rsatmalarini to'la bajarish.

Tahririyatning ommaviy tadbirlarini tashkil etishda va o'tkazishda faol ishtirok etish.

Amaliyot bo'yicha hisobot tayyorlash va amaliyot rahbariga belgilangan vaqtda topshirish. Amaliyot oxirida talaba o'z rahbariga quyidagi hujjatlarni topshiradi:

1. Kundalik
2. Qilingan ishlardan nusxalar
3. Ish jarayoni aks etgan rasmlar (3-4ta)
4. Tavsifnoma
5. Talabaning yozma hisoboti

Amaliyotni baholash mezonlari

a) a'lo (besh) baho uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- amaliyotning mohiyati va mazmunini to'liq yoritib olish;
- auditoriya sharoitida va mustaqil ravishda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda to'g'ri qo'llay olish;
- amaliyotdagi o'rganilgan hujjatlar va ma'lumotlarni ilmiy va mantiqiy bayon qila olish, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymaslik;
- amaliyot bo'yicha materiallarning nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lish;
- amaliyot bo'yicha mustaqil, erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olish;
- amaliyot bo'yicha berilgan savollarga aniq va lo'nda javob berish;